

## TIBBIYOTDA GERONTOLOGIYANING O'RGANILISH NAZARIYASI

*Andijon davlat chet tillari instituti**Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi**O'sh Qirg'iz-O'zbek universiteti**Sayidiraximova Dilfuza Sayidimaxammadjonovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiyot fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan gerontologiya fanining nazariy asoslari, asosiy ilmiy yondashuvlari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Gerontologiya inson organizmining qarish jarayonlarini biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan o'rghanadi. Maqolada qarishning genetik, erkin radikallar, endokrin va immun nazariyalari tahlil qilinadi hamda geriatrik tibbiyot, geroprofilaktika va zamonaviy taddiqotlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье освещаются теоретические основы, основные научные подходы и практическое значение геронтологии — одного из важных направлений медицинской науки. Геронтология изучает процессы старения человеческого организма с биологической, психологической и социальной точек зрения. В статье анализируются основные теории старения: генетическая, свободнорадикальная, эндокринная и иммунная, а также подчеркивается значение герiatricкой медицины, геропрофилактики и современных научных исследований.

**Annotation:** This article highlights the theoretical foundations, main scientific approaches, and practical significance of gerontology — one of the key fields in medical science. Gerontology studies the aging process of the human body from biological, psychological, and social perspectives. The article analyzes major theories of aging, including genetic, free radical, endocrine, and immune theories, while also emphasizing the importance of geriatric medicine, geroprevention, and modern scientific research.

**Kalit so'zlar:** genetika, immun nazariya, gerontologiya, endokrin.

**Ключевые слова:** генетика, иммунная теория, геронтология, эндокринная система.

**Keywords:** genetics, immune theory, gerontology, endocrine system.

Zamonaviy tibbiyatning muhim yo‘nalishlaridan biri bu – gerontologiya, ya’ni qarish jarayonlarini o‘rganadigan fan hisoblanadi. Gerontologiya nafaqat qarish mexanizmlarini o‘rganadi, balki qarilikni sekinlashtirish, sog‘lom qarish, keksalikdagi kasalliklarning oldini olish va davolash uslublarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada tibbiyatda gerontologiyaning o‘rganilish nazariyasi va uning asosiy yo‘nalishlari haqida so‘z yuritiladi.

Gerontologiya — bu odam organizmining qarish jarayonlarini biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan o‘rganadigan fan. U uchta asosiy yo‘nalishga ega:

Biogerontologiya – qarishning biologik asoslarini o‘rganadi.

Tibbiy gerontologiya (geriatrik tibbiyat) – keksalarda uchraydigan kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktika qilish bilan shug‘ullanadi.

Ijtimoiy gerontologiya – keksalikdagi ijtimoiy muammolar, pensiya siyosati, psixologik moslashuv va boshqa ijtimoiy omillarni o‘rganadi.

Gerontologiya nazariyalari

Gerontologiyada bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud. Eng mashhurlari quyidagilardir:

Genetik nazariya – qarish genetik dasturga asoslangan jarayon, ya’ni har bir organizm tug‘ilishidan boshlab ma’lum bir vaqtga qadar yashashga “dasturlangan”.

Erkin radikallar nazariyasi – organizmda kislorod asosidagi erkin radikallar hujayralarni zararlab, qarish jarayonini tezlashtiradi.

Endokrin nazariya – qarish endokrin tizim faoliyatining susayishi bilan bog‘liq.

Immun nazariya – organizm qarigani sari immunitet kuchsizlashadi, bu esa infektsiyalar va saraton kabi kasalliklarga moyillikni oshiradi.

Tibbiyotda gerontologiyaning ahamiyati

Gerontologiya sog‘lom qarishni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Tibbiy gerontologiya yordamida:

keksa yoshdagи odamlarda uchraydigan surunkali kasalliklar erta aniqlanadi; qarilik davrida sifatli hayot kechirish imkoniyati yaratiladi; parvarish, reabilitatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlash usullari takomillashtiriladi.

Xulosa: Gerontologiya inson umrining muhim bosqichlaridan biri bo'lgan qarilik davrini chuqur o'rganadi va sog'lom qarishni ta'minlovchi nazariy hamda amaliy yondashuvlarni ishlab chiqadi. Bugungi kunda aholining qarib borayotgan demografik tarkibini inobatga olgan holda, gerontologiyaga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shuning uchun bu sohani chuqur o'rganish nafaqat tibbiyot balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mechnikov I.I. *O prirode cheloveka. Issledovaniya optimizma.* — M.: Nauka, 1903.
2. Абрамов А.В., Иванова Т.С. *Геронтология и гериатрия: учебник для студентов медицинских вузов.* — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
3. Masoro E.J., Austad S.N. *Handbook of the Biology of Aging.* — Academic Press, 2011.
4. Кулаженко Т.В. *Основы геронтологии и гериатрии: учебное пособие.* — СПб.: СпецЛит, 2016.
5. World Health Organization (WHO). *Global strategy and action plan on ageing and health.* — Geneva: WHO, 2017.